UDK 911.3:352(575.1)

# MAMLAKATLAR MA’MURIY-HUDUDIY BO‘LINISHINING ASOSIY TAMOYILLARI VA OMILLARI

**Qurbonov Paxlavon Rustamovich**
Qarshi davlat universiteti, geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
**Po‘latova Shaxnoza Baxtiyorovna**
Qarshi davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya.*** *Maqolada mamlakatlar ma’muriy-hududiy bo‘linishining mohiyati, vazifalari, asosiy tamoyillari va omillari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan yoritilgan. Ma’muriy-hududiy bo‘linish, tuzilish, birlik va markaz tushunchalarining mazmuni aniqlashtirilib, ma’muriy birliklar tasnifi berilgan. Markaziy joylar, o‘sish qutblari va “markaz – periferiya” nazariyalari asosida ma’muriy bo‘linishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tamoyillar huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fazoviy-geografik guruhlarga ajratilib, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rsatilgan. Tabiiy-geografik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy omillar tizimi va ularni baholash ko‘rsatkichlari taklif etilgan. Xulosalar O‘zbekiston misolida asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’muriy-hududiy bo‘linish, ma’muriy-hududiy birlik, ma’muriy markaz, tamoyillar, omillar, boshqaruvchanlik, hududiy tashkil etish, O‘zbekiston.*

# ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ФАКТОРЫ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО ДЕЛЕНИЯ СТРАН

Курбанов Пахлавон Рустамович
Каршинский государственный университет, доктор географических наук (DSc), доцент
Пулатову Шахнозу Бахтиёровну
Магистрант Каршинского государственного университета

***Аннотация.*** *В статье с позиций экономической и социальной географии раскрыты сущность, функции, принципы и факторы административно-территориального деления стран. Уточнены основные понятия, дана классификация административных единиц. На основе теорий центральных мест, полюсов роста и модели «центр — периферия» проанализированы его теоретические основы. Принципы сгруппированы в политико-правовые, социально-экономические и пространственно-географические, выявлены их противоречия. Предложена система природных, демографических, экономических, социально-политических и историко-культурных факторов и показателей оценки. Выводы обоснованы на примере Узбекистана.*

***Ключевые слова:*** *административно-территориальное деление, административно-территориальная единица, административный центр, принципы, факторы, управляемость, территориальная организация, Узбекистан.*

# MAIN PRINCIPLES AND FACTORS OF THE ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL DIVISION OF COUNTRIES

Kurbanov Pakhlavon Rustamovich
Karshi State University, Doctor of Geographical Sciences (DSc), Associate Professor
Pulatova Shakhnoza Bakhtiyorovna
Master's student at Karshi State University

***Abstract.*** *The article examines the essence, functions, main principles and factors of the administrative-territorial division of countries from the standpoint of economic and social geography. The content of the key concepts is clarified, and a classification of administrative units is given. The theoretical foundations of administrative division are analysed on the basis of central place theory, growth pole theory and the core–periphery model. The principles are grouped into political-legal, socio-economic and spatial-geographical ones, and the contradictions between them are shown. A system of natural, demographic, economic, socio-political and historical-cultural factors and indicators for their assessment is proposed. The conclusions are substantiated using the example of Uzbekistan.*

***Keywords:*** *administrative-territorial division, administrative-territorial unit, administrative centre, principles, factors, manageability, territorial organization, Uzbekistan.*

**Kirish.** Har qanday mamlakat hududi boshqaruv, hisob-kitob va aholiga xizmat koʻrsatish maqsadida muayyan qismlarga boʻlinadi. Ana shu qismlar tizimi – maʼmuriy-hududiy boʻlinish davlat boshqaruvining, budjet mablagʻlarini taqsimlashning, ijtimoiy infratuzilmani joylashtirishning va statistik hisobning hududiy asosi hisoblanadi. Maʼmuriy birliklarning chegaralari, oʻlchamlari va markazlarining joylashuvi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish surʼatlariga, aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga va boshqaruv samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi [1; 2].

Dunyo mamlakatlarida maʼmuriy-hududiy islohotlar uzluksiz davom etmoqda. Yevropaning koʻplab davlatlarida maʼmuriy birliklarni yiriklashtirish (konsolidatsiya) tendensiyasi kuzatilayotgan boʻlsa [3; 4], aholisi tez oʻsayotgan Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan Oʻzbekistonda yangi tuman va shaharlar tashkil etilmoqda. Oʻzbekistonda 2017–2026-yillarda tumanlar soni 168 tadan 177 taga yetdi [5], 2020-yilda “Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi [6], 2023-yilgi Konstitutsiyada esa maʼmuriy-hududiy tuzilishning konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlandi [7]. Bunday oʻzgarishlar ularning ilmiy asoslanganligini, yaʼni qaysi tamoyillarga tayanilgani va qanday omillar hisobga olinganini baholashni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – mamlakatlar maʼmuriy-hududiy boʻlinishining asosiy tamoyillari va omillarini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan tizimlashtirish hamda ularni baholashning koʻrsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun maʼmuriy-hududiy boʻlinishga oid asosiy tushunchalarning mazmuni aniqlashtirildi, uning vazifalari va nazariy asoslari tahlil qilindi, tamoyillar va omillar guruhlashtirildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maʼmuriy-hududiy boʻlinish muammolari siyosiy geografiya, iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy boshqaruv nazariyasi doirasida keng oʻrganilgan. R. Hartshorne davlat hududining yaxlitligini taʼminlovchi markazga intiluvchi va undan qochuvchi kuchlar haqidagi funksional yondashuvni ishlab chiqqan [8]. V. Christallerning markaziy joylar nazariyasi maʼmuriy markazlar iyerarxiyasini tushuntirishning klassik asosi hisoblanadi [9]. F. Perru oʻsish qutblari [10], J. Fridman esa “markaz – periferiya” modeli [11] orqali hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning tabiatini ochib bergan.

Maʼmuriy birliklarning maqbul oʻlchami masalasi iqtisodiyot va siyosatshunoslik fanlarida ham keng muhokama qilingan. Ch. Tiebout [12] va U. Oates [13] kichik birliklar aholi ehtiyojlarini yaxshiroq hisobga olishini asoslagan boʻlsa, A. Alesina va E. Spolaore [14] hududiy birliklar oʻlchamini miqyos samarasi va aholi afzalliklarining xilma-xilligi oʻrtasidagi muvozanat sifatida talqin qilgan. R. Dahl va E. Tufte birlikning haddan tashqari kichikligi ham, kattaligi ham boshqaruv sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatishini koʻrsatib bergan [15]. Yevropadagi maʼmuriy islohotlar tajribasi R. Bennett [16] va P. Swianiewicz [3] tahriri ostidagi tadqiqotlarda, mintaqaviy hokimiyatlar vakolatlarining qiyosiy tahlili esa L. Hooghe va hammualliflari ishlarida [17] umumlashtirilgan.

Sobiq ittifoq geografik maktabida N.N. Baranskiy [18], N.N. Kolosovskiy [19], B.S. Xorev [2] va E.B. Alayev [1] ishlarida ma’muriy-hududiy bo‘linish iqtisodiy rayonlashtirish va jamiyatni hududiy tashkil etish bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. O‘zbekistonda ma’muriy-hududiy tuzilishning iqtisodiy-geografik jihatlari A.S. Soliyev [20] ishlarida, tarixiy-geografik xususiyatlari Sh.B. Qurbonov va J.B. Pirnazarov [21], G. Abdulxayeva va hammualliflari [22] tadqiqotlarida, tog‘li hududlardagi ma’muriy bo‘linish xususiyatlari esa T. Jumayev [23] tomonidan o‘rganilgan. Biroq mavjud adabiyotda ma’muriy-hududiy bo‘linish tamoyillari va omillari ko‘pincha alohida-alohida sanab o‘tiladi, ularning o‘zaro munosabati, tamoyillar o‘rtasidagi ziddiyatlar va omillarni miqdoriy baholash masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, tarixiy-geografik, qiyosiy-geografik, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ma’muriy-hududiy bo‘linishga oid tushunchalar mazmuni ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar [6;7] tahlili asosida aniqlashtirildi. Tamoyillar va omillarning amal qilishini ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linishining shakllanish tarixidan misollar va Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil 1-yanvar holatidagi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi [5]. Tamoyillar va omillar tizimi grafik modellar (sxemalar) ko‘rinishida tasvirlandi.

**Natijalar va muhokama.** ***Ma’muriy-hududiy bo‘linish tushunchasi va vazifalari.*** Ilmiy adabiyotda davlat hududining qismlari tizimi “ma’muriy-hududiy bo‘linish”, uni tashkil etish tartibi va huquqiy maqomi esa “ma’muriy-hududiy tuzilish” deb yuritiladi. Ma’muriy-hududiy bo‘linish hududning fazoviy tuzilmasini, ma’muriy-hududiy tuzilish esa birliklarning huquqiy maqomi, o‘zaro bo‘ysunish munosabatlari va boshqaruv organlari tizimini anglatadi [1;21]. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi O‘RQ-635-son Qonunida ma’muriy-hududiy tuzilish davlat hududini mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘lish tizimi sifatida talqin qilinadi [6].

Ma’muriy-hududiy birlik – o‘z chegaralari, nomi, ma’muriy markazi va mahalliy davlat hokimiyati organlariga ega bo‘lgan davlat hududining bir qismidir. Uning asosiy geografik belgilari hududiy yaxlitlik (kompaktlik), aniq belgilangan chegara, ma’muriy markaz, aholi va xo‘jalik majmui hamda boshqaruvning hududiy tizimi hisoblanadi. Ma’muriy markaz birlikning boshqaruv organlari joylashgan, odatda eng yirik yoki funksional jihatdan eng muhim aholi punkti bo‘lib, uning transport-geografik o‘rni birlikning boshqaruvchanligini belgilaydi [2;9].

**1-jadval**

**Ma’muriy-hududiy birliklarning tasnifi**

| Tasniflash belgisi | Turlari | O‘zbekistondagi misollar |
|---|---|---|
| Iyerarxik darajasi | Yuqori; o‘rta; quyi (boshlang‘ich) | Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri; tumanlar va shaharlar; shaharchalar, qishloqlar va ovullar |
| Huquqiy maqomi | Suveren (avtonom) respublika; oddiy birlik; maxsus maqomli birlik | Qoraqalpog‘iston Respublikasi; viloyat; poytaxt — Toshkent shahri |

| Tasniflash belgisi | Turlari | O‘zbekistondagi misollar |
|---|---|---|
| Aholi joylashuv shakli | Shahar; qishloq; aralash birliklar | Shahar tumanlari; qishloq tumanlari; viloyatlar |
| Funksional ixtisoslashuvi | Sanoat; agrar; rekreatsion; chegara oldi | Olmaliq, Zarafshon; Mirzacho‘l, Sardoba; Bo‘stonliq; Sherobod, Mo‘ynoq |
| Tashkil topish davri | Tarixiy; sovet davrida tuzilgan; mustaqillik yillarida tuzilgan | Buxoro, Xorazm; Jizzax, Navoiy viloyatlari; Bo‘zatov, Yangihayot, Ko‘kdala tumanlari |

***Manba:*** *muallif tomonidan [1; 5; 6] asosida tuzilgan.*

Ma’muriy-hududiy bo‘linish oltita asosiy vazifani bajaradi: boshqaruv (davlat hokimiyatining barcha hududlarda bir xil amal qilishini ta’minlash), iqtisodiy (hududiy-xo‘jalik majmualarini shakllantirish, mahalliy budjetlarni tuzish), ijtimoiy (ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish), statistik-hisob (aholi, xo‘jalik va yer resurslari hisobining hududiy asosi bo‘lish), siyosiy-vakillik (saylov okruglari va mahalliy vakillik organlarini shakllantirish) va madaniy-tarixiy (hududiy o‘zlik va joy nomlarini saqlash) vazifalari.

Ma’muriy birliklar bir necha belgi asosida tasniflanadi (1-jadval). Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ular faqat iyerarxik darajasi bilan emas, balki huquqiy maqomi, aholi joylashuv shakli va funksional ixtisoslashuvi bilan ham farqlanadi. Bu esa ularni o‘rganishda huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy-geografik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

***Ma’muriy-hududiy bo‘linishning nazariy asoslari.*** Ma’muriy bo‘linishni tushuntirishda uchta nazariya muhim ahamiyatga ega. V. Christallerning markaziy joylar nazariyasiga ko‘ra, markazlar tizimi bozor, transport va ma’muriy tamoyillar asosida shakllanadi; ma’muriy tamoyil (K = 7) bo‘yicha har bir yuqori darajadagi markaz atrofidagi oltita quyi darajadagi markazni to‘liq o‘z ta’sir doirasida birlashtiradi [9]. Bu nazariya ma’muriy markazlar tarmog‘ining maqbul zichligini baholashga imkon beradi. F. Perruning o‘sish qutblari nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish muayyan markazlar atrofida to‘planadi [10]. Ma’muriy markazlar boshqaruv, moliya va infratuzilma ob’yektlarini o‘zida jamlagani uchun ko‘pincha ana shunday qutblar vazifasini bajaradi, yangi ma’muriy markazni tashkil etish esa hududda yangi o‘sish qutbini shakllantirish vositasi bo‘lishi mumkin. J. Fridmanning “markaz – periferiya” modeli [11] ma’muriy birliklar ichida markaz yaqinidagi hududlar va chekka hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini izohlaydi.


Ma’muriy birliklarning o‘lchami masalasida bir-biriga qarama-qarshi ikki yondashuv mavjud: kichik birliklar boshqaruvni aholiga yaqinlashtiradi va ularning ehtiyojlarini yaxshiroq hisobga oladi [12;13], yirik birliklar esa miqyos samarasi tufayli xizmatlarni arzonroq ko‘rsatadi [3;14]. R. Dahl va E. Tufte ko‘rsatganidek, har ikki chekka holat ham boshqaruv sifatini pasaytiradi [15]. Sh.B. Qurbonov va J.B. Pirnazarov ham O‘zbekiston misolida shunday xulosaga kelib, kichik birliklar ko‘proq ijtimoiy vazifalarni bajarishini qayd etishgan [21]. Demak, ma’muriy birlikning maqbul o‘lchami universal emas, balki hududning tabiiy va demografik sharoitiga qarab tabaqalashtirilgan holda belgilanishi lozim.

***Ma’muriy-hududiy bo‘linishning tamoyillari.*** O‘zbekiston qonunchiligida bu sohadagi asosiy prinsiplar sifatida davlat hududining yaxlitligi va daxlsizligini saqlash, qonuniylik, ma’muriy-hududiy birliklarda davlat boshqaruvining samaradorligi hamda ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish belgilangan [6]. Ilmiy adabiyotda esa bir qator geografik tamoyillar ajratiladi [1; 2; 20; 21]. Ushbu tamoyillarni ularning mazmuniga ko‘ra uchta guruhga birlashtirishni taklif etamiz (1-rasm).

*Huquqiy-siyosiy tamoyillar* davlat hududining yaxlitligi, qonuniylik va ma’muriy chegaralarning barqarorligini o‘z ichiga oladi. Barqarorlik tamoyili alohida ahamiyatga ega: ma’muriy chegaralarning tez-tez o‘zgartirilishi statistik hisobni, hududiy rejalashtirishni va aholining hayot tarzini izdan chiqaradi. Masalan, O‘zbekistonda sovet davrida ma’muriy bo‘linish 1926, 1930, 1938, 1957–1961 va 1964-yillarda bir necha marta tubdan o‘zgartirilgan bo‘lib, bu o‘zgarishlar ko‘pincha ilmiy asosga emas, balki iqtisodiy-siyosiy ustuvorliklarga tayangan [21].

**1-rasm.**

**Ma’muriy-hududiy bo‘linish tamoyillarining tizimi**




***Manba:*** *Muallif tomonidan [1; 2; 6; 21] asosida tuzilgan.*

*Ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar* guruhiga iqtisodiy yaxlitlik (ma’muriy birlik hududiy-xo‘jalik majmuasi sifatida yaxlit bo‘lishi), boshqaruvchanlik (birlikning maydoni va aholisi boshqaruv organlari tomonidan samarali nazorat qilish imkonini berishi) va xizmatlardan teng foydalanish (aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari birlik hududida teng bo‘lishi) tamoyillari kiradi. N.N. Kolosovskiy ma’muriy chegaralar iqtisodiy rayonlar chegaralari bilan imkon qadar mos kelishi lozimligini ta’kidlagan [19], N.N. Baranskiy esa bu masalani iqtisodiy geografiyaning markaziy muammolaridan biri sifatida ko‘rsatgan [18].

*Fazoviy-geografik tamoyillar* markaz va ta’sir doirasining muvofiqligi (ma’muriy markaz birlikning barcha qismlari uchun transport jihatidan qulay bo‘lishi, uning gravitatsiya zonasi ma’muriy chegaralar bilan mos kelishi), tabiiy chegaralarga

tayanish (chegaralar suv ayirg‘ichlar, daryolar, tog‘ tizmalari va yagona irrigatsiya tizimlari bo‘ylab o‘tkazilishi) va tarixiy-madaniy birlikni saqlash tamoyillaridan iborat.

Amaliyotda tamoyillar ko‘pincha bir-biriga zid keladi va ma’muriy-hududiy qarorlar ularning murosasi asosida qabul qilinadi. Asosiy ziddiyatlar 2-jadvalda keltirilgan. 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ma’muriy-hududiy bo‘linishda “ideal” yechim mavjud emas: har bir qaror tamoyillar o‘rtasidagi muvozanatni topishni talab etadi. Masalan, Yevropa davlatlarida boshqaruvchanlik va iqtisodiy yaxlitlik o‘rtasidagi ziddiyat ko‘pincha ma’muriy chegaralarni o‘zgartirmasdan, birliklararo hamkorlik va metropoliya birlashmalari orqali hal etiladi [3; 4].

**2-jadval**

**Ma’muriy-hududiy bo‘linish tamoyillari o‘rtasidagi asosiy ziddiyatlar**

| Ziddiyatli tamoyillar | Ziddiyatning mazmuni | Murosa yo‘li |
|---|---|---|
| Boshqaruvchanlik ↔ iqtisodiy yaxlitlik | Kichik birlik boshqarish uchun qulay, lekin hududiy-xo‘jalik majmuasining yaxlitligini buzadi | Birliklararo hamkorlik mexanizmlari, aglomeratsiyani boshqarish organlari |
| Xizmatlardan teng foydalanish ↔ miqyos samarasi | Siyrak aholili hududlarda birlikni kichraytirish xizmatlarni yaqinlashtiradi, lekin xarajatlarni oshiradi | Hududiy xizmat markazlari, ko‘chma va raqamli xizmatlar |
| Tabiiy chegaralar ↔ iqtisodiy aloqalar | Daryo va tog‘lar bo‘ylab o‘tgan chegaralar yagona voha yoki irrigatsiya tizimini bo‘lib yuborishi mumkin | Chegaralarni irrigatsiya va transport tizimlari doirasiga moslashtirish |
| Barqarorlik ↔ demografik o‘zgarishlar | Aholining tez o‘sishi birliklar o‘lchamini o‘zgartirishni talab qiladi, lekin tez-tez o‘zgarishlar hisob va rejalashtirishni buzadi | O‘zgarishlarni uzoq muddatli hududiy rejalar bilan muvofiqlashtirish |
| Tarixiy-madaniy birlik ↔ boshqaruv samaradorligi | Tarixiy hududlar zamonaviy boshqaruv uchun haddan tashqari katta yoki kichik bo‘lishi mumkin | Tarixiy nomlar va markazlarni saqlagan holda ichki tuzilmani o‘zgartirish |


*Manba: muallif ishlanmasi.*

***Ma’muriy-hududiy bo‘linishning omillari.*** Agar tamoyillar ma’muriy bo‘linish “qanday bo‘lishi kerakligi”ni belgilasa, omillar uning «nima sababdan shunday

shakllanganligi»ni izohlaydi. Ma’muriy-hududiy bo‘linishga ta’sir etuvchi omillarni beshta guruhga birlashtirish mumkin (2-rasm).

**2-rasm.**

**Ma’muriy-hududiy bo‘linishga ta’sir etuvchi omillar tizimi**




***Manba:*** *Muallif tomonidan [1; 2; 20; 21] asosida tuzilgan.*

*Tabiiy-geografik omillar* – relef, iqlim, suv resurslari va yer fondi aholi joylashuvining asosini belgilaydi. O‘zbekiston hududining qariyb to‘rtdan uch qismi cho‘l va yarim cho‘llardan iborat bo‘lib, aholi asosan vohalar va tog‘ oldi tekisliklarida to‘plangan. Natijada bir tumanga to‘g‘ri keladigan maydon Navoiy viloyatida 13 688 km² ni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 10 413 km² ni tashkil etgani holda, Andijon viloyatida atigi 307 km² ga teng [5]. Tog‘li hududlarda esa relef aholi punktlarini alohida vodiylarga ajratib, ma’muriy birliklarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [23].

*Demografik omillar* – aholi soni, zichligi va o‘sish sur’ati ma’muriy birliklar tarmog‘ini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardir. Aholi tez o‘sayotgan hududlarda tumanlar va shaharlarning aholisi boshqaruv imkoniyatlaridan oshib ketadi va yangi birliklar tashkil etish zaruratini tug‘diradi. Masalan, 2022-yilda Ko‘kdala tumani tashkil etilganda Chiroqchi tumanining taxminan 420 ming aholisidan 176,3 ming kishi yangi tuman tarkibiga o‘tkazilgan [24]. 2026-yil boshida bir tumanga to‘g‘ri keladigan aholi Samarqand viloyatida 312,8 ming kishini, Sirdaryo viloyatida esa 118,3 ming kishini tashkil etgan [5].

**3-jadval**

**O‘zbekiston ma’muriy-hududiy bo‘linishidagi o‘zgarishlarda yetakchi omillarning namoyon bo‘lishi**

| Yil | Ma’muriy-hududiy o‘zgarish | Yetakchi omil |
|---|---|---|
| 1938 | Tarixiy vohalar asosida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari tuzildi | Tarixiy-madaniy, boshqaruvchanlik |
| 1939 | Qoraqalpoq ASSR markazi To‘rtko‘ldan Nukusga ko‘chirildi | Tabiiy-geografik (Amudaryoning qirg‘oqni yuvishi) |
| 1963, 1973 | Mirzacho‘lni o‘zlashtirish munosabati bilan Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tuzildi | Iqtisodiy (yangi yerlarni o‘zlashtirish) |
| 1982 | Navoiy viloyati tashkil etildi | Iqtisodiy (tog‘-kon sanoati) |
| 1988 | Jizzax va Navoiy viloyatlari tugatildi (1990 va 1992-yillarda tiklandi) | Ijtimoiy-siyosiy (boshqaruv apparatini qisqartirish) |
| 2020-2024 | Toshkent shahrida Yangihayot tumani tuzildi, shahar hududi viloyat hisobiga kengaytirildi | Demografik va iqtisodiy (aglomeratsiyaning o‘sishi) |
| 2022 | Chiroqchi tumanidan Ko‘kdala tumani ajratildi | Demografik (aholi sonining o‘sishi) |

***Manba:*** *[21; 22; 24; 26] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

*Iqtisodiy omillar* – yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, yirik sanoat ob’yektlarining qurilishi, transport koridorlari va shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi. Bu omillar ko‘p hollarda yangi ma’muriy birliklarning tashkil etilishiga yoki chegaralarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan (3-jadval).

*Ijtimoiy-siyosiy omillar* – davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va chegara oldi hududlari xavfsizligi. Masalan, 2026-yildan O‘zbekistonning 33 ta tuman (shahar) va Surxondaryo viloyatining barcha tuman va shaharlarida respublika ijro etuvchi organlarining joylardagi bo‘linmalarini tuman hokimliklari tuzilmasiga o‘tkazish tajribasi boshlandi [25]. Bu tuman darajasini asosiy boshqaruv bo‘g‘ini sifatida mustahkamlaydi va tumanlar o‘lchamining maqbulligiga bo‘lgan talabni oshiradi.

*Tarixiy-madaniy omillar* – aholining tarixiy shakllangan hududiy birligi, an’anaviy bozor va savdo markazlari, irrigatsiya tizimlari atrofida shakllangan vohalar ma’muriy chegaralarning barqarorligini ta’minlaydi. Buxoro va Xorazm vohalari, Zarafshon va Farg‘ona vodiylari kabi tarixiy-madaniy hududlar O‘zbekistonning bugungi viloyatlar chegaralarida ham aniq aks etgan [21; 22]. O‘zbekiston ma’muriy-hududiy bo‘linishining shakllanish tarixidan olingan misollar turli omillarning amaldagi rolini yaqqol ko‘rsatadi (3-jadval).

3-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, turli davrlarda ma’muriy o‘zgarishlarning yetakchi omillari almashib turgan: 1930-yillarda tarixiy-madaniy va boshqaruv omillari, 1960–1980-yillarda iqtisodiy omillar, keyingi yillarda esa demografik va urbanizatsiya omillari ustunlik qilgan. Bu holat ma’muriy-hududiy bo‘linishni statik emas, balki hududning rivojlanishiga mos ravishda o‘zgarib boruvchi tizim sifatida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda amal qiladi: iqtisodiy omil (yangi yerlarni o‘zlashtirish) demografik omilni (aholi migratsiyasi va o‘sishi) yuzaga keltiradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-siyosiy qaror — yangi tuman tashkil etilishiga olib keladi. Omillarni qiyosiy baholash va ma’muriy-hududiy qarorlarni asoslash uchun ularning har biriga mos miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimini taklif etamiz (4-jadval).

**4-jadval**

**Ma’muriy-hududiy bo‘linish omillarini baholash ko‘rsatkichlari**

| Omillar guruhi | Baholash ko‘rsatkichlari | Ma’muriy bo‘linishga ta’siri |
|---|---|---|
| Tabiiy-geografik | Cho‘l, tog‘ va sug‘oriladigan yerlar ulushi; suv resurslari bilan ta’minlanganlik; relefning parchalanganligi | Birliklar maydoni va chegaralar konfiguratsiyasi; aholi punktlarining tarqoqligi |
| Demografik | Aholi soni va zichligi; tabiiy o‘sish; migratsiya saldosi; shahar aholisi ulushi; bir birlikka to‘g‘ri keladigan aholi | Birliklarning demografik “yuklamasi”; yangi tuman va shaharlar tashkil etish ehtiyoji |
| Iqtisodiy | Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot; tarmoq ixtisoslashuvi; transport tarmog‘i zichligi | Markazlar tanlovi; hududiy-xo‘jalik majmualarining yaxlitligi |
| Ijtimoiy-siyosiy | Boshqaruv organlari vakolatlari; davlat dasturlari; chegara oldi maqomi | Islohotlar sur’ati va yo‘nalishi |
| Tarixiy-madaniy | Tarixiy vohalar va markazlar; an’anaviy aloqalar; toponimiya | Chegaralarning barqarorligi; aholining hududiy o‘zligi |

***Manba:*** *muallif ishlanmasi.*

Taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar tizimi ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar bo‘yicha takliflarni tayyorlashda ularni yagona mezonlar asosida taqqoslash imkonini beradi. Bu ayniqsa O‘zbekiston uchun dolzarb, chunki amaldagi qonunchilikda shaharlar va shaharchalar uchun aholi soni mezonlari belgilangan bo‘lsa-da, tumanlarni tashkil etish uchun miqdoriy mezonlar mavjud emas [6].

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ma’muriy-hududiy bo‘linish davlat hududini tashkil etishning siyosiy-huquqiy shakli bo‘lib, u boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy, statistik-hisob, siyosiy-vakillik va madaniy-tarixiy vazifalarni bajaradi. Uni “ma’muriy-hududiy tuzilish” tushunchasidan farqlash lozim: birinchisi hududning fazoviy tuzilmasini, ikkinchisi birliklarning huquqiy maqomi va boshqaruv tizimini ifodalaydi.

2. Ma’muriy-hududiy bo‘linishning nazariy asosini markaziy joylar nazariyasi, o‘sish qutblari nazariyasi va “markaz – periferiya” modeli tashkil etadi; ma’muriy birlikning maqbul o‘lchami universal bo‘lmay, hududning tabiiy va demografik sharoitiga qarab tabaqalashtirilgan holda belgilanishi kerak.

3. Ma’muriy-hududiy bo‘linish tamoyillarini huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fazoviy-geografik guruhlarga ajratish taklif etildi. Amaliyotda tamoyillar o‘rtasida ziddiyatlar (boshqaruvchanlik va iqtisodiy yaxlitlik, barqarorlik va demografik o‘zgarishlar va boshqalar) yuzaga keladi va ma’muriy-hududiy qarorlar ularning murosasi asosida qabul qilinadi.

4. Ma’muriy-hududiy bo‘linishga tabiiy-geografik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy omillar majmui ta’sir ko‘rsatadi; O‘zbekiston tajribasi turli davrlarda yetakchi omillarning almashib turganini ko‘rsatadi.

5. Omillarni baholashning miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi. Undan ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar bo‘yicha takliflarni asoslashda, jumladan tuman darajasidagi birliklar uchun miqdoriy mezonlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan Adabiyotlar**


1. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география: понятийно-терминологический словарь. – М.: Мысль, 1983. – 350 с.
2. Хорев Б.С. Территориальная организация общества (актуальные проблемы регионального управления и планирования в СССР). – М.: Мысль, 1981. – 320 с.
3. Swianiewicz P. Territorial Consolidation Reforms in Europe. – Budapest: Open Society Institute – LGI, 2010. – 340 p.
4. OECD. Making Decentralisation Work: A Handbook for Policy-Makers. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 146 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistika: «Tumanlar», «Shaharlar», «Yer maydoni to‘g‘risida ma’lumot», «Aholi zichligi» jadvallari (2010–2026). – URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2 (murojaat sanasi: 22.10.2026).
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida»gi O‘RQ-635-son Qonuni. – URL: https://lex.uz/acts/-4973063
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
8. Hartshorne R. The functional approach in political geography // Annals of the Association of American Geographers. – 1950. – Vol. 40, No. 2. – P. 95–130.
9. Christaller W. Die zentralen Orte in Süddeutschland. – Jena: Gustav Fischer, 1933. – 331 S.
10. Perroux F. Note sur la notion de pôle de croissance // Économie appliquée. – 1955. – Vol. 8. – P. 307–320.
11. Friedmann J. Regional Development Policy: A Case Study of Venezuela. – Cambridge, MA: MIT Press, 1966. – 279 p.
12. Tiebout C.M. A pure theory of local expenditures // Journal of Political Economy. – 1956. – Vol. 64, No. 5. – P. 416–424.
13. Oates W.E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. – 256 p.
14. Alesina A., Spolaore E. The Size of Nations. – Cambridge, MA: MIT Press, 2003. – 261 p.
15. Dahl R.A., Tufte E.R. Size and Democracy. – Stanford: Stanford University Press, 1973. – 148 p.
16. Bennett R.J. (ed.). Territory and Administration in Europe. – London: Pinter, 1989. – 320 p.
17. Hooghe L., Marks G., Schakel A.H. The Rise of Regional Authority: A Comparative Study of 42 Democracies. – London: Routledge, 2010. – 256 p.
18. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. – М.: Географгиз, 1956. – 366 с.
19. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – М.: Мысль, 1969. – 336 с.
20. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. – T.: Kamalak, 2013. – 182 b.

21. Qurbonov Sh.B., Pirnazarov J.B. O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining tarixiy-geografik tahlili // Ilim hám jámiyet. – 2024. – № 2. – B. 44–46.

22. Abdulxayeva G., Qudratov D., Abdualimova Z. O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924–1991-yillar) // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 3, № 1. – B. 380–391.

23. Jumayev T. O‘zbekiston tog‘ zonasi ma’muriy-hududiy bo‘linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish // FarDU ilmiy xabarlari. – 2024. – T. 30, № 6. – B. 139.

24. Chiroqchi tumani ikkiga bo‘lindi // Kun.uz. – 19.03.2022. – URL: https://kun.uz/news/2022/03/19/chiroqchi-tumani-ikkiga-bolindi

25. Tuman va shahar hokimliklarida boshqaruvning yangi tizimi joriy etiladi // Spot.uz. – 22.10.2025. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/10/22/district-governments

26. Deputatlar Toshkent shahar hududini kengaytirish to‘g‘risidagi qaror loyihasini qabul qildi // Kun.uz. – 16.08.2021. – URL: https://kun.uz/news/2021/08/16/deputatlar-toshkent-shahar-hududini-kengaytirish-togrisidagi-qaror-loyihasini-qabul-qildi

27. Qurbonov P. R. Janubiy O ‘zbekiston yer usti tuzilishining urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar taraqqiyotiga ta’siri //SCIENCE and SOCIETY. – 2025. – №. 5-1. – C. 40-42.

28. Qurbonov P. R., Qo’ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – C. 617-619.

29. Qurbonov P. R. Iqlim o’zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O’zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – C. 210-214.